

PO'LAT MO'MIN IJODINING RANG-BARANG QIRRALARI

Xushanov Alisher Oydin o'g'li

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Turkiy tillar fakulteti 3-bosqich talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6725840>

Abstract

Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning hayoti va ijod yo'lida insonning komil shaxs sifatida tarbiyalanishi, idrok qilish qobiliyati Adabiyotga bog'liqligi haqida fikr yuritilgan.

Key words: Adabiyot, Abdulla Qahhor, ta'lim, hayot. Bilim

Adabiyot juda katta bir olamni o'z ichiga oladi, badiiy asarlar ta'siri inson ongida chuqur iz qoldirishi, insonning komil shaxs sifatida tarbiyalanishida juda muhim omil sanaladi. „Adabiyot - atomdan kuchli“ deb ta'kidlaydi Abdulla Qahhor. Darhaqiqat, asarlar zamiridagi tub ma'no qachonki kishining qalb to'ridan koy olsa, to'g'ri idrok qilish qobiliyatini oshirsa asar yaxshi badiiy adabiyot hisoblanadi. Shu o'rinda bolalar adabiyotida ijod qiladigan ijodkor jufa ehtiyotkor bo'lishi kerak. Chunki bola tabiati o'zgaruvchan, ta'sirchan bo'ladi. U atrofdagi voqealarga hodisaga befarq bo'lmaydi, shu bilan bir qatorda badiiy asarlardagi qahramonlar hayotini ham o'zicha tahlil qiladi. Bolalar adabiyotining boshqa adabiyotlardan o'zgaruvchanlikdir, sujetlarning tezligidir. U kitobxon yoshi, ijtimoiy muhit davr bilan bevosita bog'liq bo'ladi. Muallif kitobxon yoshini hisobga olishi, bolalar adabiyotining eng asosiy xususiyatlaridandir. Masalan, maktabgacha yoshdagi bolalarda voqealar ko'rgazmali yo'nalishda, badiiy tasviriy vositalaridan foydalanilgan holda ifoda etiladi. Yana bunday asarlardagi konflikt oddiy usulda tasvirlab beriladi.

Lekin o'smirlar hayotiga bag'ishlab yozilgan asarlarda voqealar murakkablashib boriladi. Hayotning turfa xil qirralari obrazlar ruhiyati bilan ochila boshlaydi.

Bolalar adabiyotining yana bir xususiyati uning harakatga boyligidir. Bundan bolalar adabiyotida sujetga bo'lgan yuqori darajadagi talab ham kelib chiqadi. U voqealarning tezkor, qiziqarli, fantaziya, yumorga boy ravishda yechilishini talab qiladi.

Bolalar adabiyoti shunday o'ziga xosliklardan iborat. Aynan shu yo'nalishda ijod qiladigan adiblar, avvalambor bolalar bilan birga o'z faoliyatini yuritadilar. Ularning hayotiga oid voqealardan ilhomlanadi. O'zbek adabiyotida bolalarga atab yozilgan asarlar talaygina. Bu asarlarning barchasi endi o'sib kelayotgan yoshlar tafakkurini yuksaltiradi. Po'lat Mo'min ham bolalar adabiyotida salmoqli ijod qilgan adiblardan biridir. U bola ruhiyati bilan birga yashadi, mohir pedagog sifatida bola ko'nglining bilimdoniga aylandi. Adibning „Sayrang qushlar“ nomi

bilan bosmadan chiqqan ilk asari ham yosh-u qarini birdek o'ziga jalb etdi. Bundan tashqari adib mumtoz adabiyotda ham qalam tebratgan. Uning g'azal, tuyuq, fard janrlarida yozilgan ko'plab asarlar qo'shiqqa aylangan. Mana shunday shoir badiiyatining mazmuni rango-rangdir. Dastavval Po'lat Mo'minning bolalar adabiyotidagi asarlarini o'rganadigan o'rganadigan bo'lsak, she'rlarida bolalik sho'xliklari, vatanga bo'lgan muhabbatni uyg'otish, ota-onaga xizmatning vijibliigi g'oyalari yetakchi mavzu bo'lgan.

Shoirning „Intilaman maqsadimga“ nomli she'ri endi maktabga chiqishga tayyorgarlik ko'rayotgan bolaning orzulari maqsadlari qo'shib yozilgan asardir.

Yuksaklarda ruhim o'sar,

Fikrim o'sar.

Qani endi chiqsam

tikka yuksaklikka,

Yuragimda tilagim bor

Toleyim yor.

Intilaman maktabimga,

Maqsadimga.

Bilamizki, maktabga endi qadamini qo'yayotgan yosh bolakay o'z oldiga beg'ubor orzularini qo'yadi, bilim olishga intiladi, bor kuch-g'ayratini o'qishga sarflaydi. Ana shu holatni Po'lat Mo'min go'zal misralar bilan tasvirlab bergan.

Yana shoirning „Bo'sh kelganni yengarmish“ nomli she'rida esa dangasalikning yomon xususiyatlarini yengil o'xshatishlar bilan tushuntiradi. Bunday she'rlar bola ongini rivojlantiradi, dunyoqarashini kengaytiradi. Po'lat Mo'minning she'rlari yana bolaning tarbiyasida ham muhim rol o'ynaydi. Kattalarga hurmat, oilaga muhabbat do'stona tuyg'u, mehnatsavarlik kabi xislatlar yorqin ifoda etiladi.

Har bir ishga ashq kerakdir.

Zarur uquv, o'rganish.

Bilar-bilmas ish tutganga

Hech gap emas o'rganish.

Shoirning yuqorida keltirilgan „Kerakdir mashq-o'rganish“ nomli she'rida esa insonlar oddiy ishlarni bajarishdahanam uquv lozimligini, barcha vazifalarni qunt bilan ishlash kerakligini ta'kidlaydi. Shundagina ish unumli va barokatli bo'ladi deydi adib.

Po'lat Mo'min ana shunday bolalar ruhiyatini o'rgangan, bola tili bilan ijod qiladigan adib uning har bir she'rida yosh avlod psixologiyasiga juda teran ta'sir qiladigan misralar keltiriladi. Tarbiyafa muhim bo'lgan hurmat, mehnatsevarlik,

samimiylilik, kamtarlik xislatlari bir o'rinda hazil-mutoyiba, bir o'rinda pand-nasihah ohangi bilan ifoda etiladi.

Endi biz adibning mumtoz adabiyot qirralarini o'zida jamlagan g'azal tuyuq fardlariga e'tiborimizni qaratamiz.

Ey go'zal, noming na deb berdim savol indamadi.

Mahliyo etdi tamom oftobjamol indamadi.

Xalqimiz orasida sevimli qo'shiqlardan biriga aylanga bu bayt aruz vaznining ramalu musammani mahzuf bahrida yozilgan. Bu vazn mumtoz adabiyotimizda eng ko'p qo'llaniladigan bahrlardan biri hisoblanadi. Ushbu bahrda yozilgan g'azallar juda yengil, ohangi boshqa bahrlardayoziladogan asarlardan ajralib turadi. Yuqoridagi g'azal mazmuni badiiy adabiyotimizdagi oshiqning o'z yoriga murojaatlaridir. Afsuski, yor oshiqning izhorlariga bee'tibor, faqatgina o'z bog'i bilan band. Keyin oshiqyaxshilab surishtirsa yorning ko'nglida boshqa birov bor ekan, oshiq yigit yorni zo'rlamaydi, o'z holiga qo'yadi.

Ko'nglida boshqa birov sevgi vafodori yashar,

Shu sabab Mo'min so'zim keldi malol, indamadi.

Po'lat Mo'minningyana „E'tiqod o'zgarmagay” nomli she'ri ham o'quvchi e'tiborini o'ziga tortadi.

Kim agar o'zgatirur

Bir kuni vijdon urur.

Qilmagil, Mo'min xato

E'tiqod o'zgarmagay.

Bu she'rda odam o'z e'tiqodini o'zgartirib inkor etishi mumkin, lekin baribir bu xatosiga o'z e'tiqodining qoidalari bilan javob beradi deyilgan. Shu uchun ham e'tiqod o'zgartirilmasligi haqida sytib o'tiladi.

Po'lat Mo'min serqirra ijodkor. U she'rlar, g'azallar bilan bir qatorda turli xil sahna asarlarini ham yaratgan, tarjimachilik bilan ham shug'ullangan. Shu kabi xizmatlari munosib baholanib 1988-yilda adibga „El-yurt hurmati” ordeni beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Po'lat Mo'min (1922) – Ziyouz
2. Po'lat Mo'min (1922-2004) – Ziyouz
3. Мамасоли Жумабоев. Одоб ва офтоб куйчиси